

**O‘zbekiston**  
**Metama'lumot**  
**Magistral quvur yo'llari uzunligi (jami)**

Ishlab chiqilgan sana: 22.08.2024

Oxirgi yangilangan sana: 22.08.2024

## 0. Asoslar

### 0.1 Qonuniy asoslar

#### 0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

##### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

2021-yil 11-avgustda Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo uchun Rasmiy statistika to'g'risidagi namunaviy qonuni asosida ishlab chiqilgan "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o'rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to'g'risida nizomga muvofiq, Statistika agentligi rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etilishini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika uslubiyotlarining birligini ta'minlash; statistika ma'lumotlarini yig'ishni, uy xo'jaliklarining statistika kuzatuvlarini, ro'yxatga olishlarni, bir marotabalik hisobga olishlarni, tanlanma so'rovlarni va boshqa statistika kuzatuvlarini o'tkazishni tashkil etish; barcha darajadagi foydalanuvchilarni belgilangan tartibda rasmiy statistika ma'lumotlari bilan ta'minlash; statistika maqsadlarida foydalanish uchun statistika registrlari va tasniflash tizimini yuritish uchun javobgar hisoblanadi.

Shu bilan birga, Rasmiy statistika to'g'risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma'lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o'tkazish va olingan birlamchi ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;

- jismoniy shaxs bo'lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag'batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni so'rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo'lgan statistika ma'lumotlarini yig'ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;
- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

Statistika jarayonlarini boshqarish, shu jumladan statistika ma'lumotlarini tayyorlash va tarqatish xalqaro sifatni boshqarish modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0)ga asosan ishlab chiqilgan milliy tartib-taomillarga muvofiq amalga oshiriladi.

### **0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish**

#### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvi ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo‘yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo‘yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

### 0.1.3 Respondentlar individual ma‘lumotlarining maxfiyligi

#### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma‘lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma‘lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma‘lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma‘muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo‘jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

Statistika agentligi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma‘lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Statistika agentligining har bir xodimi ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o‘z ichiga olgan shartnomaga qo‘l qo‘yishi shart.

### 0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

#### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, statistika organlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuvini shakllarini olish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo‘lgan hisobot va boshqa ma‘lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma‘lumotlarini buzib ko‘rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o‘tkazish chog‘ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to‘liq ma‘lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

## 0.2 Resurslar

### 0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Markaziy apparatda “Magistral quvur yo‘llari uzunligi” ko‘rsatkichini shakllantirishda 1 nafar xodim shug‘ullanadi.

Statistika ma‘lumotlarini shakllantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni bajarishda xodimlar soni yetarli.

Barcha xodimlar iqtisodiy sohada oliy ma‘lumotga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida har 2 yilda kamida bir marta malaka oshiradilar.

Har bir ish joyi shaxsiy kompyuter bilan ta‘minlangan, dasturiy ta‘minot muntazam ravishda yangilanib turadi.

Statistika dasturida belgilangan ishlarni bajarish uchun moliyalashtirish yetarlidir.

## 1. Beg‘arazlik

### 1.1 Kasbiy mahorat

#### 1.1.1 Statistikaning xolisligi

##### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan beg‘arazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo‘limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo‘lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo‘ysunadi.

Mazkur statistik ma‘lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo‘l qo‘yilmagan va kasbiy mustaqillik to‘liq ta‘minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e‘tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslari, o‘quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta‘minlash orqali ta‘minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o‘quv kurslarida ma‘ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e‘lon qilib borish tashkil etilgan.

### 1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

#### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta‘minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma‘lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma‘lumotlarni birlashtirish, ma‘lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog‘lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma‘lumotlar to‘plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma‘lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma‘lumotlarining sifati to‘g‘risida metama‘lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

### 1.1.3 Statistik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish yoki undan noto‘g‘ri foydalanish bo‘yicha sharh

#### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

Statistika agentligi statistik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish va statistik ma‘lumotlardan noto‘g‘ri foydalanilganda o‘z izohini berishi mumkin.

## 1.2 Shaffoflik

### 1.2.1 Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

#### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlilik va shaffoflik. Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish bo‘yicha shartlar O‘zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonun va statistik ma‘lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko‘rsatilgan statistika dasturi Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining [www.lex.uz](http://www.lex.uz) manzilida joylashgan ma‘lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma‘lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Statistika agentligi rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e‘lon qilinadi.

## 1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

Hukumat Statistika agentligi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi ("Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Agentlik direktori, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

## 1.2.3 Statistik ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

## 1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Statistika agentligi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Statistika agentligi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

## 1.3. Axloq me'yorlari

### 1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

#### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi**

Statistika agentligi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Statistika agentligi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

## 2. Uslubiyat

### 2.1 Konsepsiya va tushunchalar

#### 2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2024 – yil 29-maydagi 66-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Transport statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom” Magistral quvurlarning uzunligi ko‘rsatkichini shakllantirishda uslubiy asos hisoblanadi.

Magistral quvurlarning uzunligi (jami) quvurlarning barcha uchastkalari (magistral neft quvurlari va magistral gaz quvurlari) chiziqli uzunliklarining yig‘indisi sifatida hisoblanadi. Bir uzunlikdagi kilometrlarda o‘lchanadi.

Magistral quvurlarning uzunligi quyidagicha hisoblanadi:

a) Magistral neft quvurlari – neftni ishlab chiqarish maydonidan neftni qayta ishlash korxonalari va tashkilotlariga, temir yo‘l yuklash punktlariga, ma‘lum bir maydon (kelib chiqish joyi) hududida joylashgan bosh nasos stansiyalariga, shuningdek, filiallarga tashish uchun mo‘ljallangan quvurlar, alohida korxonalar va tashkilotlarga neft yetkazib berish uchun mo‘ljallangan quvur yo‘llari kiradi. Neft quvurlarining uzunligi bitta yo‘nalish hisobida, jumladan, tarmoqlarning barcha uchastkalarining yonalish uzunliklari yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

b) Magistral gaz quvurlari – gazni qazib olish yoki ishlab chiqarish joyidan gaz taqsimlash stansiyalariga uzoq masofalarga o‘tkazish uchun mo‘ljallangan quvurlar. Gaz quvurlarining uzunligi bosh nasos stansiyasining kirish kollektoridan gaz taqsimlash stansiyasining kirish kollektoriga va chiziqli krandan iste‘mol punktining gaz taqsimlash stansiyasining kirish kollektoriga chiziqli ajratmalarning chiziqli uzunligini bir martalik hisoblashda quvurlarning barcha uchastkalarining chiziqli uzunligi yig‘indisi sifatida tavsiflanadi.

Gaz quvurlarining uzunligi maishiy iste‘molchilarga gaz yetkazib beradigan gaz taqsimlash tarmog‘ining uzunligini qamrab olmaydi. Bir uzunlikdagi kilometrlarda o‘lchanadi.

### 2.2 Statistik qamrov

#### 2.2.1 Statistik qamrov

##### 2.2.1.1 Ma‘lumotlarning statistik qamrovi

Ma‘lumotlarning geografik qamrovi faqat O‘zbekiston Respublikasini o‘z ichiga oladi.

Ko‘rsatkich “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tomonidan taqdim etiladigan umumiy foydalanishdagi temir yo‘l transporti xizmatlari to‘g‘risidagi ma‘muriy ma‘lumot asosida shakllantiriladi.

##### 2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Hech qanday istisnolar yo‘q.

### 2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

“Yashirin” iqtisodiyot hisobga olinmaydi.

## 2.3 Tasniflash/sectorlar bo‘yicha taqsimlash

### 2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo‘yicha taqsimlash

Ma’lumotlar faqat O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha shakllantiriladi. Asosiy hisob birligi institutsional birlikdir.

## 2.4 Hisobga olish asoslari

### 2.4.1 Baholash

Magistral quvurlarning uzunligi (jami) quvurlarning barcha uchastkalari (magistral neft quvurlari va magistral gaz quvurlari) chiziqli uzunliklarining yig‘indisi sifatida hisoblanadi. Bir uzunlikdagi kilometrlarda o‘lchanadi.

a) neft quvurlari va neft mahsulotlari – mamlakat hududida joylashgan neft va neft mahsulotlarini quyish uchun magistral quvurlarining uzunligi yig‘indisi sifatida hisoblanadi. Bir uzunlikdagi kilometrlarda o‘lchanadi;

b) gaz quvurlari – tarqatish nasos stantsiyasidan mamlakatning sanoat korxonalariga gaz yetkazib beradigan alohida gaz quvurlari uchastkalarining chiziqli uzunligi yig‘indisi sifatida hisoblanadi.

Gaz quvurlarining uzunligi maishiy iste’molchilarni gaz bilan ta’minlaydigan gaz taqsimlash tarmog‘ining uzunligini qamrab olmaydi.

Ushbu ko‘rsatkich “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati tomonidan taqdim etilgan ma’muriy ma’lumotlarni aks ettiradi.

### 2.4.2 Hisobga olish asosi

Ko‘rsatkich “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati tomonidan taqdim etilgan ma’muriy ma’lumotlar asosida shakllantiriladi.

### 2.4.3 Yalpi/sof ko‘rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

Ko‘rsatkich har yili shakllantiriladi.

## 3. Aniqlilik va ishonchlik

### 3.1 Birlamchi ma'lumotlar

#### 3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Ko'rsatkich uchun ma'lumot manbai ma'muriy ma'lumotlar hisoblanadi.

#### 3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Magistral quvurlarning uzunligi (jami) quvurlarning barcha uchastkalari (magistral neft quvurlari va magistral gaz quvurlari) chiziqli uzunliklarining yig'indisi sifatida hisoblanadi. Bir uzunlikdagi kilometrlarda o'lchanadi.

a) neft quvurlari va neft mahsulotlari – mamlakat hududida joylashgan neft va neft mahsulotlarini quyish uchun magistral quvurlarining uzunligi yig'indisi sifatida hisoblanadi. Bir uzunlikdagi kilometrlarda o'lchanadi;

b) gaz quvurlari – tarqatish nasos stantsiyasidan mamlakatning sanoat korxonalariga gaz yetkazib beradigan alohida gaz quvurlari uchastkalarining chiziqli uzunligi yig'indisi sifatida hisoblanadi.

Gaz quvurlarining uzunligi maishiy iste'molchilarni gaz bilan ta'minlaydigan gaz taqsimlash tarmog'ining uzunligini qamrab olmaydi.

Ma'lumotlar faqat O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ishlab chiqariladi.

Statistik hisobni takomillashtirish maqsadida har yili ma'muriy ma'lumotlar qayta ko'rib chiqiladi.

#### 3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi statistika dasturi bilan tartibga solinadi.

Birlamchi ma'lumotlar har yili hisobot davridan keyin 6 oydan oshmagan muddatda shakllantiriladi.

### 3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

#### 3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Yig'ilgan ma'lumotlar nafaqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, balki "O'ztransgaz" aksiyadorlik jamiyati tomonidan ham tahlil qilinib, majburiy nazorat va tekshiruvdan o'tkaziladi. Agar ro'yxatga olishda, tasniflashda va nazorat qilishda xatolar aniqlansa, u holda, ma'lumotga yana bir bor aniqlik kiritiladi.

### **3.3 Statistik usullar**

#### **3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar**

Ko'rsatkichni shakllantirishda asosiy va joriy davrlar uchun ma'lumotlar taqqoslanadi. Ko'rsatkich quvvur liniyasi turi bo'yicha tasniflanadi (neft quvurlari va gaz quvurlari).

#### **3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar**

Yo'q.

### **3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash**

#### **3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash**

Ko'rsatkichni hisoblash uchun bazis va joriy davrlar ma'lumotlari taqqoslanadi. Agar ro'yxatga olishda, tasniflashda va nazorat qilishda xatolar aniqlansa, u holda, ma'lumotlar "O'ztransgaz" aksiyadorlik jamiyati bilan birga yana bir bor aniqlik kiritiladi.

#### **3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash**

Asosiy oraliq ma'lumotlardagi mumkin bo'lgan farqlar tahlil qilinadi va ma'lumotlar farqlarni bartaraf etish uchun tuzatiladi.

#### **3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish**

Agar nomuvofiqliklar aniqlansa, ilgari e'lon qilingan ma'lumotlar keyingi nashrlarda o'zgartiriladi.

### **3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili**

#### **3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish**

Agar nomuvofiqliklar aniqlansa, ilgari e'lon qilingan ma'lumotlar keyingi nashrlarda o'zgartiriladi.

Ma'lumotlarni nashr qilish: har yili - hisobot davridan keyin 6 oydan oshmasligi kerak.

## **4. Amaliy yaroqlilik**

### **4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi**

#### **4.1.1 Davriylik**

Ko'rsatkichni shakllantirish har yili, hisobot davridan keyin 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

#### **4.1.2 O‘z vaqtidaligi**

Ko‘rsatkich har yili hisobot davridan keyin 6 oydan oshmagan muddatda nashr qilinadi.

### **4.2 Qiyosiylik**

#### **4.2.1 Ichki qiyosiylik**

Tasdiqlangan va tarqatilgandan so‘ng, statistika ma‘lumotlari qayta ko‘rib chiqilmaydi.

#### **4.2.2 Vaqt bo‘yicha qiyosiylik**

2000-yildan boshlab ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi veb-saytida taqdim etilgan (<http://stat.uz>).

#### **4.2.3 Sektorlar va sohalar o‘rtasidagi qiyosiylik**

Yo‘q.

### **4.3 Ma‘lumotlarni qayta ko‘rib chiqish**

#### **4.3.1 Ma‘lumotlarni qayta ko‘rib chiqish jadvali**

Ko‘rsatkichni shakllantirish uchun ma‘lumotlar statistika dasturida ko‘rsatilgan muddatda yangilanadi.

#### **4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko‘rib chiqilgan ma‘lumotlarni aynan shu toifasi bo‘yicha belgilash**

Yakuniy ma‘lumotlar tarqatiladi.

#### **4.3.3 Ma‘lumotlarni qayta ko‘rib chiqishni o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha olingan natijalarni tarqatish**

Ilgari nashr qilingan ma‘lumotlarga aniqlik kiritilsa, qayta ko‘rib chiqilgan ma‘lumotlar keyingi nashrlarda taqdim qilinadi. Qayta ko‘rib chiqilgan (yakuniy) ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi nashrlari orqali tarqatiladi.

## 5. Qulayligi

### 5.1 Ma'lumotlar

#### 5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Bir necha davrdagi ko'rsatkichlar ma'lumotlarni taqqoslash uchun jadvallar ko'rinishida taqdim etiladi. Yakuniy ma'lumotlar foydalanuvchilarning so'roviga asosan tarqatiladi.

#### 5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

##### 5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Ma'lumotlar foydalanuvchilarga ularning talablariga muvofiq jadval shaklida taqdim etiladi.

##### 5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

##### 5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Mavjud emas.

##### 5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Mavjud emas.

##### 5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Foydalanuvchilarning alohida so'rovlari bo'yicha jadvallar.

##### 5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Mavjud emas.

#### 5.1.3. Ma'lumotlarni e'lon qilish jadvali

Ma'lumotlar har yili hisobot davridan keyin 6 oydan oshmagan muddatda e'lon qilinadi.

#### 5.1.4 Bir vaqtning o'zida e'lon qilish

Yo'q.

#### 5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

Foydalanuvchilarning alohida so'rovlari bo'yicha jadvallar.

## 5.2 Metama'lumotlar

### 5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining veb-saytida (<http://stat.uz>).

## 5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

### 5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining veb-saytida (<http://stat.uz>).

## 9. Rejalar

### 9.1 Oxirgi

#### 9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Statistika va idoraviy kuzatuv vositalar(shakllar)ini takomillashtirish.

### 9.2 Umumiy

#### 9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Statistika va idoraviy kuzatuv vositalar(shakllar)ini takomillashtirish.

#### 9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

Statistika va idoraviy kuzatuv vositalar(shakllar)ini statistika dasturida belgilangan muddatlarda takomillashtirish.

### 9.3 Moliyaviy

#### 9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko'makka talab – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish statistika dasturi doirasida amalga oshiriladi.

#### 9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko'makka talab – O'rta muddatli

Moliyalashtirish statistika dasturi doirasida amalga oshiriladi.

### Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Mirzaxidov Abdug'ofur Yuldashevich
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
Manzil:	Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998 71 2028059 (61)
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	a.mirzaxidov @stat.uz